

ONA TILI DARSLARIDA SO‘Z TURKUMLARINI O‘RGANISH VA «FE’L» SO‘Z TURKUMINI O‘QITISH

*Xorazm viloyati, Gurlan tumani, Gurlan 1-son kasb hunar maktabi,
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Ermetova Sayida Nurmatovna*

Annotasiya: Ushbu maqolada ona tili darslarida o‘quvchilarga so‘z turkumlarini o‘rganish va “Fe’l” so‘z turkumini o‘qitishdagi interfaol metod va usullar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: So‘z turkumlari, shaxs-son va zamon qo‘shimchalari, fe’l, tub va yasama, fe’l nisbatlari, sodda va qo‘shma fe’llar, fe’lning ma’naviy guruhlari

Abstract: In Native Language classes in schools, students learn vocabulary and teach verbs.

Keywords: Word groups, verbs, person-number and tense suffixes, primitive and artificial, simple and compound verbs, verb ratios, verb semantic groups

Mustaqillik sharofati bilan respublikamizda yangilanish, rivojlanish davri boshlanib, ijtimoiy hayotimiz umumjahon andozalariga mos taraqqiyot yo‘nalishlariga jadal sur‘atlar bilan kirib bormoqda. “XXI asr yoshlarini har tomonlama rivojlangan, yetuk dunyoviy fikr yuritadigan, bilimli barkamol shaxslarni jahon ta’lim standartlariga mos ravishda tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir”. Yangi asr o‘qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik - psixologik jihatdan chuqur bilimga egaligi, intellektual salohiyatning yuksak darajadali, innovatsion ta’lim texnologiyalari, ta’limning interfaol usullari va ilg‘or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda barcha ta’lim muassasalarida o‘qitish jarayonida interfaol usullardan foydalanishga erishilmoqda. Bu esa interfaol ta’lim asosida tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning mazmun-mohiyatini to‘liq tushunib yetishga va ularni samarali,

qiziqarli, sifatli bo'lishini ta'minlashga ko'maklashadi. Interfaol usullaridagi darslar o'quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi. Interfaollik – bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni bunda o'quv-biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter yordamida) yoki o'quvchining o'zaro muloqotiga asosan kichadi. Interfaol ta'lim asosini interfaol metodlar tashkil etadi. Talim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish, ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni samarali o'zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar interfaol metodlar sanaladi. Ona tili darslarida zamonaviy usullardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish hamda mavzuni o'zlashtirishda yaxshi samara beradi. «Fe'l» so'z turkumi xususidagi dastlabki ma'lumotlar boshlang'ich sinflarda va «V» sinfda «Muqaddima» bo'limi orqali beriladi. Shuning uchun mazkur so'z turkumini o'rganishdan oldin egallangan bilim, malaka va ko'nikmalar takrorlanadi. VI sinfda fe'llarning lug'aviy shakllari va ma'no guruhlari o'rganiladi. O'quvchilar «Tub va yasama, sodda va qo'shma fe'llar», «Fe'llarning umumiy xususiyatlari», «Fe'l nisbatlari» (aniq nisbat, orttirma nisbat, majhul nisbat, o'zlik nisbat, birgalik nisbat), «Nisbat qo'shimchalarining so'z yasovchilar bilan yaxlitlanishi va takror qo'llanilishi», «Fe'lning vazifa turlari» (harakat nomlari, sifat doshlar, ravish doshlar), «Harakat tarzi shakllari», (yurish-harakat fe'llari, nutq fe'llari, tafakkur fe'llari, natijali faoliyat fe'llari, natijali faoliyat fe'llari, holat fe'llari singari mavzular bilan tanishadilar.) O'quvchilarning so'z zahirasi fe'llar bilan boyitishning muhim choralaridan biri fe'l-sinonimlar ustida ishlashdir. Berilgan fe'llarga ma'nodoshlar topish (masalan, ajablanmoq, taajjublanmoq, hayron bo'lmoq; ayirmoq, ajratmoq, judo qilmoq, mahrum qilmoq), sinonimik uyadagi ma'nosi tushunarli bo'lmagan so'zlarning ma'nosini izohlash, qatordagi har bir so'z yordamida gaplar tuzish (masalan Muslimaxon berilgan so'zlar ichidan fe'llarni ajratdi. Bozorga olib ketilishi lozim bo'lgan mevalarni bir yoqqa ayirdi),

matnni tahrir qilib, takrorlangan fe'llar o'quvchilarning so'z zahirasini oshirishda o'ta muhimdir.«Harakat nomi» mavzusini o'rganishda berilgan matn yoki gaplardan harakatni atab kelgan so'zlarni ajratish, ularni qo'shimchadoshlarga bo'lib guruhlash, bu guruhlarni mustaqil davom ettirish, qo'shimchadosh so'z guruhlari uchun xos bo'lgan qo'shimchalar: -sh, -ish, -v, -uv, -moq ni ajratish, bu qo'shimchalar bilan hosil bo'lgan so'zlarning imlosi, gaplarni harakat nomi birikmalariga, birikmalarni gaplarga aylantirish (masalan, haqiqat tantana qiladi, Haqiqatning tantana qilish kabi), harakat nomlarini zarur, kerak, lozim, shart,muhim kabi so'zlar bilan birikib, kesim vazifasida kelishi ustida ish olib boriladi. Fe'lning ravishdosh va sifatdosh shakllarini o'rganishda ham shunga o'xshash amaliy ishlar davom ettiriladi. O'quvchilar berilgan fe'l juftlarini (mas., keldim, ishladim) bog'lovchilar yoki ohang vositasida bog'lab gap tuzish, bu fe'llarni -b (-ib), -gach (-kach) qo'shimchalari bilan biriktirib, gaplarning shaklini o'zgartirish (masalan, , men keldim va ishladim – Men keldim, ishladim – Men kelib ishladim – Men kelgach ishladim kabi), ravishdosh yasovchi qo'shimchalar ro'yxatini tuzish, ular yordamida so'zlar hosil qilish, bu qo'shimchalarning imlosi ustida ishlash kabi amaliy ishlardan foydalaniladi. Sifatdoshlarni o'rganishda o'quvchilar berilgan «sifat – ot» shaklli birikmalarda (mas., siniq shisha, buzuq uy, quruq meva) sifatni fe'l bilan almashtirish (mas., singan shisha, buzilgan uy, qurigan meva) va sifatli birikmalar hosil qilish, sifatdoshlarni hosil qiluvchi birikmalarni aniqlash, ularning imlosi ustida ishlash, sifatdoshlardan foydalanib, gaplarning mazmunini saqlagan holda shaklini o'zgartirish (masalan, Kim ko'p o'qisa, dono bo'ladi. - Ko'p o'qigan kishi dono bo'ladi) singari topshiriqlarni berish mumkin. Ma'lumki, tuslangan fe'llarning ham, tuslanmagan fe'llarning ham bo'lishli va bo'lishsiz shakllari mavjud. O'quvchilar bu mavzularni o'rganishda bo'lishli fe'llarni bo'lishsiz shaklga va aksincha, bo'lishsiz fe'llarni bo'lishli fe'llarga aylantirish, bo'lishsiz shaklni hosil qiluvchi qo'shimchalarni aniqlash ustida ish olib boradilar. «Fe'l» so'z turkumini o'rganishda, ayniqsa, uyadosh fe'llar ustida ishlash muhim ahamiyatga ega. 5-sinfda o'quvchilar «Uyadosh so'zlar» mavzusini o'rganishda bir qator uyadosh fe'llar bilan ham tanishganlar.

Chunonchi, «Ona tili» darsligi (5- sinf)ning «Lug‘at» qismida namuna sifatida «olmoq» va «ko‘rmoq» fe‘lining uyadoshlari berilgan. Bu ish 6-sinfda davom ettiriladi. Berilgan umumiy ma‘noli fe‘lning xususiy ma‘nolarini aniqlash, bir paradigmani tashkil etgan fe‘llar ro‘yxatini tuzish (masalan, nutq fe‘llari: so‘zlamq, gapirmoq, pichirlamoq, shivirlamoq, baqirmoq, o‘qimoq, hikoya qilmoq, qichqirmoq, v.h.) singari ijodiy-amaliy ishlar o‘quvchilar so‘z zahirasini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur so‘z turkumini o‘rganishda o‘quvchini ta‘lim jarayonining faol ishlovchisiga aylantirish uchun kuzatish, izlanish, alohidaliklarni sharhlash, qiyoslash, umumiylikni aniqlash, farqlarni topish, tasnif etish, hukm chiqarish, amalda qo‘llash singari aqliy faoliyat usullarini qo‘llash lozim. «Fe‘l» so‘z turkumiga oid barcha mavzular til xodisalarini kuzatish va izlanish bilan boshlanib, umumlashmalar hosil qilish va amalda qo‘llash bilan yakunlanadi. «Fe‘llarning yasalishi» mavzusini o‘rganishdan oldin o‘quvchilarning o‘zak va qo‘shimcha xususida egallagan ma‘lumotlari xotirada tiklanadi. Berilgan so‘zlarni o‘zakdoshlarga ajratish va har bir so‘zning qaysi so‘z turkumiga mansub ekanligini aniqlash o‘rganilganlarni xotirada tiklash hamda yangi mavzuni o‘rganishga zamin hozirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Botirova, S. I. (2020). PROBLEMATIC ASPECTS RELATED TO THE USE OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AND INTERACTIVE METHODS IN THE CLASSROOM. EPRA International Journal of MULTIDISCIPLINARY RESEARCH (IJMR), 6(8), 539-541.
2. Botirova, S. I. (2020). FOR STUDENTS OF PHILOLOGY TEACHING LITERARY CONDITIONS OF LEARNING BASIC ANALYSIS. Science and Education, 1(5), 110-113.
3. Isamiddinova, B. S. (2020). THE RELATIONSHIP BETWEEN SYMBOLICALLY FIGURATIVE INTERPRETATION AND PSYCHOLOGY. Asian Journal of Multidimensional Research, 9(9), 12-15.
4. Ботирова, Ш. (2020). Бадий психологизм критерийлари ва замонавий ўзбек романчилиги. Tafakkur ziyosi, 2(2), 146-148.
5. Шахло, Б. (2020). Инсон ва ҳаёт воқелигини метафорик уйғунлаштиришда бадий психологизмнинг ўрни. Сўз санъати, 2(3), 19-23.
6. Badalova, B. (2020). Modern Methods of Teaching Russian and Uzbek as a Foreign Language to Students. Science and Education, 1(Special Issue 2).